

## "PAREMIYA" HAQIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7671478>



Kabulova Umida Sayidmaxamadovna

Dotsent

Andijon davlat chet tillari instituti.

Bulturova Rahimaxon Isakovna

Talaba

Andijon davlat pedagogika instituti.

ELSEVIER



Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**Abstract:** Ushbu maqola "IL402104213 raqamli O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" innovatsion davlat ilmiy – texnika dasturi asosida hamda "Turg'un birikmalarning struktur va semantik butunligini ta'minlovchi vositalar" mavzusida filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya asosida tayyorlangan. Uning amaliy ahamiyati shundaki, maqolada o'zbek tiliga oid lingvistik material jamlangan va tahlil qilingan. Ilmiy maqola natijalaridan Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs o'qitishda, qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Keywords:** turg'un birikma, jumla, ifoda, ibora, lingvistik termin, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma, frazeologizm, lug'aviy birlik, struktur tahlili, semantik shakllar, frazeologik qiyoslanish, ekvivalentlik nazariysi, obrazli ifodalar, frazeografik konsepsiya.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**Abstract:** Эта статья готовится "IL402104213-разработка электронного лингвистического энциклопедического словаря на узбекском языке была подготовлена на основе инновационной государственной научно – технической программы и диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук по теме "Средства обеспечения структурной и семантической целостности устойчивых сочетаний". Его практическая значимость заключается в том, что в статье обобщен и проанализирован лингвистический материал по узбекскому языку. Результаты научной статьи могут быть использованы при преподавании спецкурса на филологических факультетах высших учебных заведений, при создании пособий.

**Keywords:** устойчивое сочетание, предложение, выражение, словосочетание, лингвистический термин, фразеологическое целое, фразеологическое спряжение, фразеологизм, лексическое единство, структурный анализ, семантические формы, фразеологическое сравнение, теория эквивалентности, образные выражения, фразеографическое понятие

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**Abstract:** This article is being prepared by "IL402104213. The development of an electronic linguistic encyclopedic dictionary in the Uzbek language was prepared on the basis of an innovative state scientific and technical program and a dissertation for the degree of Doctor of Philology on the topic " Means of ensuring the structural and semantic integrity of stable combinations". Its practical significance lies in the fact that the article summarizes and analyzes linguistic material on the Uzbek language. The results of the scientific article can be used when teaching a special course at the philological faculties of higher educational institutions, when creating manuals.

**Keywords:** stable combination, sentence, expression, phrase, linguistic term, phraseological whole, phraseological conjugation, phraseologism, lexical unity, structural analysis, semantic forms, phraseological comparison, equivalence theory, figurative expressions, phraseographic concept.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Frazeologiya tilshunoslikning boshqa bo'limlariga nisbatan yangi bo'limdir. U leksikologiya bag'ridan XX asrning 50-yillaridan mustaqil bo'lim sifatida ajralib chiqdi. Sobiq sho'rolar davrida Imperiya hududidagi barcha tillarning

frazeologiyasi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida dunyoga keldi. Jumladan, o'zbek frazeologiyasi ham bundan mustasno emas. Har bir til o'zining so'zlariga, frazeologiyasiga, hamda paremiologiyasiga ega. Xususan, o'zbek tillarining paremiologiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo "Paremiya nima?" degan savolga javob topishimiz kerak<sup>186</sup>.

Paremiya – *yunoncha chuqur ma'noli* gap, hikmatli so'z, ibora, maqol, matal ma'nosini beradi.

Tilning paremiologik fondi xalqning qimmatli lisoniy merosini ifodalaydi, ularning madaniyati, an'analari va tarixini aks ettiradi. Paremiyalarda xalqning oila, ish, jamiyat kabi hayot va hodisalarning turli sohalariga munosabati aks etadi.

Maqol va matallar ma'naviy madaniyatning, ayniqsa, muhim unsuri hisoblanadi. Lingvistik paremiyalar semantik o'zgarish, poetik obrazlilik va turli xil badiiy tuzilmalar bilan xarakterlanadi.

Xorijiy tilshunoslar A.Teylor, V.Meader<sup>187</sup> paremiologik birliklar bilan shug'ullangan. Paremiya atamasi ostida tadqiqotchilar xalqning kelib chiqishi bilan bog'liq holatda, birinchi navbatda, maqollar va so'zlar birliklarini tushunadilar. Ammo atamaning kengroq ta'rifi ham mavjud. Misol uchun, G.S.Vorkachev<sup>188</sup> paremiyalarga nafaqat maqollar va turg'un so'zlar birikmalari, balki topishmoqlar, matallar va aforizmlarni ham kiritadi.

Xususan, maqollar "barqarorlik, tayyorlik, ko'chma ma'noga egalik va muallifga ega emaslik" xususiyatlari bilan aforizmlarni ham, klischelar ni ham, hatto ertaklarni ham turg'un birikmalar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Paremiologiya (*yun. paroimia* – hikmatli so'z, zarbulmasal va ... logiya) – 1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganadigan fan sohasi; 2) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimi.

Xalq og'zaki ijodi vakillari maqollar va matallarni o'rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremalar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagini o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun

<sup>186</sup> Баёнханова И.Ф.Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. – СамДЧТИ, 2014.

<sup>187</sup> Mieder Wolfgang. Paremiological minimum and cultural literacy // De Proverbio — Issue 1: 1995.

<sup>188</sup> Воркачев С.Г. Quisque suum: идея справедливости в научном дискурсе II Синтез: Философия. Право. Экономика. 2009. № 1(19), 2(20). – С. 15-31. Воркачев С.Г. Идея справедливости в русских паремиях: сила не в силе, а в правде II Язык и ментальность. Сер. «Славянский мир». СПб., 2010. Вып. 5. –С. 20-28.

<sup>189</sup> G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur-semantik tadqiqi. –T.: "Fan", 2013.

adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi.

Shu bilan birga paremalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir. Paremalar ana shu ikki jihatni o'zida birlashtiradi. Paremalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma'no xususiyatlarini o'rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog'liq.

Paremiologiya tilda mavjud bo'lgan turli xil barcha iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro farqlanadi. O'rganish obyektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirish paremalar bilan frazeologiyaning o'xhash, umumiy tomoni hisoblanadi.

Paremalarni to'plash, o'rganish Mahmud Koshg'ariy («Devonu lug'otit-turk») va Gulxaniy («Zarbulmasal») zamonlaridan to hozirgi kunlarga davom etib kelmoqda<sup>190</sup>.

Frazema va paremalar munosabati ham ancha yillardan beri dolzarb muammo bo'lib keldi. Bu bo'yicha ko'plab izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning kelib chiqishi, shakllanishi, differensial va nodifferensial birlashtiruvchi belgilari masalalari bo'yicha muammolar o'z yechimini topmoqda.

Frazemalar va turg'un birikmalar (paremalar) munosabati masalasida olimlar turlicha mulohaza qiladilar. V.V.Vinogradov maqol va matallarni frazeologik birliklar qatoriga kiritadi. S.G.Garvin maqollarning beshta belgisiga qarab, paremalarni frazeologizmlar tarkibiga qo'shadi. A.V.Kuvin ham paremalarni frazeologizmlarning bir qismi deb ataydi. L.I.Royzenzon, N.M.Shanskiy, A.V.Kumin maqollarni frazeologizmlar tarkibiga kiritadi. Bu fikrga A.M.Babkin, M.M.Kapilkenka, Z.D.Ranova ham qo'shiladilar<sup>191</sup>.

A.V.Kunin esa frazeologik birliklarning barqarorligini turli ko'rinishlarga xosligida deb belgilaydi<sup>192</sup>.

Rus terminologiyasining ko'zga ko'ringan namoyandas, mashhur folklorist olim G.L.Permyakovning qarashlari bu borada, aniq va qiziqarli ekanligini ko'rsatadi<sup>193</sup>.

Paremiologiya qadimdan olimlarda qiziqish uyg'otib kelgan. Aristotel maqol va matallarni (paremiya) birinchi bo'lib tasnif qilgan va sistemalashtirgan. Paremiologiyaning fan sifatida shakllanishi o'tgan asrning boshiga to'g'ri keladi va

<sup>190</sup> Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – T., 1984.

<sup>191</sup> Rahimova Z. Frazema va parema munosabati masalasi\An'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – №4. – Andijon. 2014. – B.73.

<sup>192</sup> Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: «Высшая школа». Дубна: издательский центр «Феникс», 1996. – С.381.

<sup>193</sup> Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988.

birinchi navbatda, A.Taylor nomi bilan bog'liq bo'lib, maqollar, ezgu so'zlar, iboralar va taqqoslashlar haqida juda ko'p nazariy manbalar beradi.

So'nggi yillarda paremiyalar lingvokulturologiyaning asosiy o'rghanish obyektiga aylandi, xususan, F.F.Farxutdinova<sup>194</sup>va boshqalar shu yo'nalishda izlanishlar olib bordilar.

Tadqiqotchi M.Asranova paremiologik birliklar lingvistik tuzilishi va funksional yuklamasi tufayli katta pretsedent potensialga ega ekanligini hamda paremiyalar hodisa tavsliflari uchun yirik manba bo'lib xizmat qiladigan keng fondni tashkil etishini o'z tadqiqotida alohida ta'kidlab o'tdi.

Paremiyalarga xalq og'zaki ijodi sifatida emas, balki lingvistik tahlil muammosi sifatida qiziqish faqat XX asrda paydo bo'ldi.

G.L.Permyakov tilning paremiologik darajasini aniqlab, maqol va matallar paremik iboralarning asosiy qismini tashkil etishini ta'kidladi<sup>195</sup>.

Shunday qilib, paremiya – bu ona tilida so'zlashuvchilarga ma'lum bo'lgan og'zaki shakl bo'lib, u hayot haqiqatlarini o'rghanish jarayonida millat yoki insoniyat tomonidan to'plangan chuqur bilimlarni ixcham va metafora shaklida ifodalaydigan birlikdir.

G.I.Galeyeva va M.V.Kononenkolar ta'kidlaganidek, "Til - millatning ruhi, uning tarixiy xotirasi. Xalq boshidan kechirgan barcha narsalar ularning so'zlarida, maqollarida, topishmoqlarida va ertaklarida o'z ifodasini topadi", - deydi ular. Bunday qadriyatlar, albatta, abadiydir. Shunday ekan, paremiologiyani obrazli qilib, xalq hayotining ensiklopediyasi deb aytish joizdir.

Paremiologiyani o'rghanish N.F.Alefirenko, V.P.Anikin, G.L.Permyakov, L.B.Savenkova, E.I.Seliverstova kabi ko'plab zamonaviy tilshunoslar tomonidan olib borildi. Paremiologiya muammolari ingliz va amerikalik paremiologlari A.Teylor, V.Miyeder, A.Dandes, B.J.Hitinglar tomonidan ham o'rghanilgan bo'lib, ularning diqqat markazida turli tillar paremiologiyasini taqqoslash, qiyosiy o'rghanish birinchi o'rinda turgan. Shu bilan birgalikda, Amerikalik tadqiqotchilar, xuddi mahalliy tadqiqotchilar singari, paremalarning tarkibiy va semiotik xususiyatlariga e'tibor qaratdilar.

Paremiologiyani o'rghanish – bu psixologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, folklorshunoslik va antropologiya kabi fanlarning vazifasidir.

<sup>194</sup>Фархутдинова Ф.Ф. Концептуальный анализ паремических единиц // Материалы Международной конференции «Фразеологическая картина мира» / Сост. В.Т. Бондаренко, Г.В. Токарев: В 2-х ч. Ч 1. – Тула: Изд-во ТГПУ им Л.Н. Толстого, 2002.

<sup>195</sup> Пермяков Г.Л., Мокиенко паремиологический сборник. –Москва, 1978.

**A D A B I Y O T L A R:**

- 1.Фархутдинова Ф.Ф. Концептуальный анализ паремических единиц // Материалы Международной конференции «Фразеологическая картина мира»/Сост. В.Т. Бондаренко, Г.В. Токарев: В 2-х ч. Ч 1. - Тула: Изд-во ТГПУ им Л.Н. Толстого, 2002.pdf
- 2.Пермяков Г.Л., Мокиенко паремиологический сборник. -Москва, 1978.pdf
- 3.Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. - Т.,1984.
- 4.Rahimova Z. Frazema va parema munosabati masalasi\\ An'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - №4. -Andijon. 2014. - B.73.
- 5.Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. - М.: «Высшая школа». Дубна: издательский центр «Феникс», 1996.
- 6.Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. - М.: Наука, 1988.
- 7.Баёнханова И.Ф.Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. - СамДЧТИ, 2014.
- 8.Mieder Wolfgang. Paremiological minimum and cultural literacy// De Proverbio – Issue 1: 1995.
- 9.Воркачев С.Г. Quisque suum: идея справедливости в научном дискурсе II Синтез: Философия. Право. Экономика, 2009. -№ 1(19), 2(20).
- 10.G'aniyeva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur-semantik tadqiqi. -Т.: "Fan", 2013.